

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMDAMOVA MADINABONU DILMUROD QIZI

**AYRIM DONLI O'SIMLIKLAR CHIQINDILARI VA SULI ASOSIDA
XALQ TABOBATI UCHUN YANGI TOVARLAR OLISH**

**02.00.09 - Tovarlar kimyosi
14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Xamdamova Madinabonu Dilmurod qizi

Ayrim donli o‘simliklar chiqindilari va suli asosida xalq tabobati uchun yangi tovarlar olish 3

Хамдамова Мадинабону дилмурод кизи

Получение новых товаров для народной медицины на основе овса и отходов некоторых зерновых растений..... 21

Khamdamova Madinabonu Dilmurod qizi

Obtaining new products for traditional medicine based on oats and waste of some cereal plants..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XAMDAMOVA MADINABONU DILMUROD QIZI

**AYRIM DONLI O'SIMLIKLAR CHIQINDILARI VA SULI ASOSIDA
XALQ TABOBATI UCHUN YANGI TOVARLAR OLISH**

**02.00.09 - Tovarlar kimyosi
14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K887 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor
Kirgizov Shaxobiddin Mirzaraimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Shavkat Vohidovich
kimyo fanlari doktori, professor
Ismoilov Mo‘minjon Yusupovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “20” 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘cha. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘cha. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “11” 08 kuni tarqatildi.
(2025 yil “11” 08 dagi 57 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Sh.X.Abdulloyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
rais o‘rinbosari, k.f.d., professor

M.M.Mo‘minjonov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qo‘shidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda donli o‘simliklar va ularning ikkilamchi qismlarining kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, bezarar tabiiy oziq-ovqat va nooziq –ovqat mahsulotlarini mahsulotlarini ishlab chiqish muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, donli o‘simliklar va ularning ikkilamchi qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan oziq-ovqat qo‘shimchalarni tabiiy homashyolar asosida zararsiz va ekologik toza tovarlarni ishlab chiqib, xalq xo‘jaligi va tabobatida qo‘llash alohida ahamiyatga ega.

Jahonda ichak yallig‘lanishi xususan, yo‘g‘on ichak kolitini davolash va oldini oluvchi sintetik preparatlarning zararli yon ta’sirlarga ega ekanligi sababli o‘simliklar asosida tabiiy, immunitetni oshiruvchi hamda ayrim sintetik dorilarni o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalarni ishlab chiqishga e’tibor tobora ortib bormoqda. Bu borada, plastik nooziq-ovqat va sanoat buyumlaridan foydalanish insonlar orasida turli kasalliklarning paydo bo‘lishi hamda ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganligi tufayli yangi turdagi ekologik toza bir martalik idishlarni ishlab chiqish borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Shuning uchun ham, donli o‘simliklarning ikkilamchi qismlarining kimyoviy tarkibini aniqlash asosida plastik buyumlar o‘rnini bosuvchi tabiiy, ekologik toza, bioparchalanuvchan zararsiz bir martalik idishlarni ishlab chiqish hamda ularni kimyoviy tarkibiga ko‘ra tasniflash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mahalliy donli o‘simliklar va ularning ikkilamchi qismlarini asosida ichak yallig‘lanish kasalliklari xususan, yo‘g‘on ichak kolitini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimchalari hamda tabiiy polimer materiallari asosida ekologik toza idishlarni ishlab chiqish bo‘yicha muayyan natijalariga erishilgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi va suli doni asosida ichak yallig‘lanish kasalligi, yo‘g‘on ichak kolitini oldini oluvchi va davolovchi, organizm immunitetini mustahkamlovchi, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi hamda ekologik toza bioparchalanuvchan idishlar ishlab chiqish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari aniqlash hamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risidagi» PF-5853-son Farmonidagi “Barcha turdagi davlat ilmiy va oliy ta’lim muassasalarining qishloq xo‘jaligi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish” shuningdek, PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII.“Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘simlik ikkilamchi mahsulotlari tarkibidagi biologik faol moddalar va ularning biokimyoviy xususiyatlari ustida ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, suli donining antimutagen, antibakterial, antioksidant, kollagen xossalari L.Kolinoyu, D.Vodnar, T.L.Kiselyova, R.I.Belkina, V.S.Popov, T.L.Pilat arpa kepagining surunkali kasalliklar, jigar faoliyati, buyrak yallig‘lanishi, qandli diabetda ijobiy ta’siri, mikroob, virus, rak hujayralariga qarshi xususiyatlari Y.Zeng, X.Yang, S.Mandal, S.Jianu, M.Kazemi, L.Jirovets, O.V.Knyazev, S.I.Sitkin, bug‘doy va makkajo‘xori kepagining kimyoviy tarkibi Z.Chyen, L.Mense, R.Breuer, tabiiy polimerlar sifatida qo‘llash usullari va avfzalliklari Y.Kudryakova, Y.Long, I.Potoroko, A.Malinin kabi chet ellik olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Respublikamizda ushbu tadqiqot yo‘nalishida k.f.d. professor I.R.Asqarov, I.Y.Mamatova, M.M.Mo‘minjonov tomonidan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilib, tuberkulyoz va jigar kasalliklarida davolash xususiyatlari va samarali ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, o‘simliklar asosida dorivor preperatlar va oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish ustida k.f.d, professor I.R. Asqarov, t.f.d., professor X.Isaqov, k.f.d., prof.lar Y.T.Isayev, O.Sh.Abdullayev, k.f.d., dots. M.M.Mo‘minjonov kabi o‘zbek olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Hozirda donli o‘simliklar kepagi asosida ichak yallig‘lanish kasalligini oldini oluvchi va davolovchi, shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi va ekologik toza bioparchalanuvchan idishlar hamda ular uchun TIFTN bo‘yicha tovar kodi ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi arpa kepagi va suli doni asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarini ichak yallig‘lanish kasalliklarini oldini olish va davolash uchun foydalanish, makkajo‘xori va bug‘doy kepagidan bioparchalanuvchan idishlar ishlab chiqarish, ular uchun kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xalq xo‘jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy yetishtiriladigan suli doni hamda arpa, bug‘doy, makkajo‘xori kepagi asosida xalq tabobati uchun shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi va ekologik toza bioparchalanuvchan idishlar ishlab chiqish, ularni kimyoviy tarkibini aniqlash va sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa o‘simliklari kepagining kimyoviy tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy analiz usullarida aniqlash;

suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi asosida xalq tabobati uchun antioksidantligi yuqori optimal tarkibli oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqish;

yangi olingan oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi, biologik faolligini laboratoriya tahlillari va xalq tabobatida qo‘llash uchun klinik sinovlar orqali shifobaxshlik xususiyatlarini isbotlash;

bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida ekologik toza bioparchalanuvchan idishlar tayyorlash uchun optimal nisbat va sharoitlarini ishlab chiqish;

olingan yangi tovarlardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, texnik-me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va TIF TN bo‘yicha xalqaro tovar kodi tavsiya qilish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida mahalliy sharoitlarda yetishtiriladigan bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi va suli doni hamda ular asosida tayyorlangan yangi tovarlar olingan.

Tadqiqotning predmetini bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida ekologik toza bioparchalanuvchan bir martalik idishlar tayyorlash, arpa kepagi va suli doni asosida ichak yallig‘lanishiga qarshi yangi oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibi, biologik faolliklarini aniqlash hamda Uyg‘unlashgan tizim qoidalari asosida sinflash tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida quritish ekstraksiya, tozalash, yangi olingan tovarlar tarkibini yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, spektrofotometriya, induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya, immun- fermentativ analiz usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

in vitro sharoitida spektrofotometrik usulda “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasining AF 43% ekanligi bu esa adabiyotlarda keltirilgan namunalarga nisbatan 1,3 barobar yuqori va ARF 49% ekanligi aniqlangan;

“ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi 60 dan ziyod makro- va mikroelementlar miqdori IBPOES usulida aniqlanib, K, P, Mg, Ca, Na, Fe, Mn, Zn, Si kabi hayotiy zarur elementlarni yuqori miqdorda saqlashi aniqlangan;

“ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida samarali ta’sir etishi isbotlangan B guruhi vitaminlarni $B_3 > B_1 > B_9 > B_6 > B_2 > PP > C$ kamayib borish tartibida va salitsil kislotasi, kversetin, apegenin va rutin kabi fenol birikmalari saqlashi YuSSX usulida isbotlangan;

“ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi ichak yallig‘lanishini chaqiruvchi ksilolga nisbatan katalaza, lipaza va xolisterenaza fermentlarining yuqori katalitik faolligi biologik oksidlash jarayonlarini ingibirlab, qaytara olish xossasini namoyon qila olishi IFA usuli orqali isbotlangan;

bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida ishlab chiqilgan bioparchalanuvchan bir martalik “EKOIDISH” laboratoriya sharoitida prinsipial sxema bo‘yicha ishlab chiqarish uchun optimal tarkibning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari ilmiy asoslangan; “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi va bioparchalanuvchan “EKOIDISH” TIF TN qoidalari bo‘yicha, kimyoviy tarkibi asosida sinflangan va tovar kodlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Suli doni va Arpa kepagi asosida ichak yallig‘lanish kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega ekologik toza “ASMADON” nomli oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqilgan;

bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida ekologik toza bioparchalanuvchan bir martalik “EKOIDISH” nomli ishlab chiqilgan hamda tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha sinflangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi suli doni va arpa kepagi asosida olingan “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi, bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida bioparchalanuvchan “EKOIDISH” kimyoviy tarkibini aniqlashda, YuSSX, spektrofotometriya, IBPOES va IFA usullaridan foydalanilganligi, olingan ilmiy natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi va bioparchalanuvchan “EKOIDISH” kimyoviy tarkibi, shifobaxsh xususiyatlari va mexanik ustuvorligi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog‘langan plazmali emission spektrofotometriya, immunno-fermentativ boshqa miqdoriy analiz usullari, spektrofotometriya hamda biologik faollikni aniqlash usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati suli doni va arpa kepagi asosida “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun retsept, texnologik yo‘riqnoma, tibbiyot bosh boshqarmasi xulosasi, bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida bioparchalanuvchan “EKOIDISH” ishlab chiqarishda optimal nisbat va sharoitlar yoritilgan elektron dastur uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risidagi” (№ DGU 42750) guvohnomasi olinganligi hamda kimyoviy tarkibi asosida TIF TN yangi tovar kod raqamlari davlat bojxona amaliyotida foydalanish uchun ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suli doni va arpa kepagi asosida kolit kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmasini, bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida bioparchalanuvchan bir martalik idishlarni ishlab chiqish, kimyoviy tarkibini aniqlash va sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ichak yallig‘lanishini oldini olish va davolash xususiyatiga ega, suli doni va arpa kepagi asosida “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasini “Oltin Vodiy Tabiati

MCHJ” da ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma (TY №303271760-09:2024) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazorati tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazoratining 2025 yil 20 yanvardagi №020299 son ma’lumotnomasi). Natijada suli doni va arpa kepagi asosida tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish imkonini bergan;

Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasiga “kletchatka, vitaminlarga boy arpa va suli kepagi asosida tayyorlangan, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun - 1212 99 960 1, hamda bioparchalanuvchan “EKOIDISH” ga “kletchatkaga boy, o‘simliklar asosida tayyorlangan tabiiy bioparchalanuvchan buyumlar” – uchun 1404 90 000 2 yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilib, davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 18 oktyabrdagi №17/05-24-0004-son ma’lumotnomasi). Natijada, suli doni va arpa kepagi asosida kolit kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmasi, hamda bioparchalanuvchan buyumlar ishlab chiqarish umkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola respublika va 4 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi va suli donining kimyoviy tarkibi, xalq tabobatidagi ahamiyati va bioparchalanuvchan idishlar olish (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada **suli, arpa, bug‘doy, va makkajo‘xori**

o‘simliklarining botanik tavsifi, tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Suli va arpa asosida oziq-ovqat qo‘shimlarining shifobaxsh xususiyatlari, kepak asosida bioparchalanuvchan idishlar olishning amaliy va ekologik dolzarbligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi va ular asosida olingan tovarlarning kimyoviy tarkibini aniqlash (eksperimental qism)**” deb nomlangan ikkinchi bobida *namunalarning* sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar miqdorini YuSSX, element analizi IBPOES, antioksidant, antiradikal faolligini *in vitro* sharoitida va yangi oziq-ovqat qo‘shilmasining biologik faolligini *in vivo* sharoitida IFA usullari orqali hamda laboratoriya sharoitida bioparchalanuvchan idishlar olish usuli keltirilib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning “**Suli doni, arpa, bug‘doy, makkajo‘xori kepagi hamda olingan tovarlarning kimyoviy tarkibini tahlil qilish va natijalari muhokamasi**” deb nomlangan uchinchi bobi olingan natijalar va ularning tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, dastlab tadqiqot obyektlarining organoleptik va sifat ko‘rsatkichlarini DF va talablariga mos ekanligini aniqlash maqsadida DS keltirilgan tartibda namlik (%), kul miqdori (%) hamda pH qiymatlari aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.


1-jadval.

Suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar	Suli	Bug‘doy	Makkajo‘xori	Arpa
Tarkibi	Doni	Kepagi		
Rangi	Sarg‘ish-oq	Och-qo‘ng‘ir	Tiniq sariq	Och-sariq
Ta‘mi	Shirin	Hushta‘m	Nim shirin	Nim shirin
Namlik, %	9.6	8.5	9.5	7.2
Kul miqdori, %	4.84	4.77	3.8	4.2
pH	7.8	7.8	6.5	4.6

Mahalliy Oddiy suli donida namlik 9.6%, kul 4.84%, pH 7.8, bug‘doy kepagida namlik 8.5%, kul 4.77%, pH 7.8, makkajo‘xori kepagida namlik 9.5%, kul 3.8%, pH 6.5ni, arpa kepagida namlik 7.2%, kul 4.2%, pH 4.6 ni tashkil qildi. Namunalar barchasi DF talablariga mos va ular asosida yallig‘lanishni davolovchi oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqish mumkin degan xulosaga kelindi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan Oddiy suli (*A.sativa* L.) doni tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida aniqlandi va xromatogrammasi olindi (1-rasm).



1-rasm. Oddiy suli (*A.sativa* L.) donidagi suvda eruvchan vitaminlar xromatogrammasi.

Olingan xromatogrammalar asosida vitaminlar miqdorining aniq qiymatlari (mg/100g) va suvda eruvchan vitaminlarga bo'lgan ehtiyojning (mg) bir kunlik meyoriga nisbatan kunlik ehtiyojni qoplashi (%) hisoblab topildi (2-jadval).

2-jadval.

Oddiy suli (A.sativa L.) doni tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori (mg/100g) va kunlik ehtiyojni qoplashi (%).

№	Vitaminlar	Oddiy suli (A.sativa L.) nisbatan (mg/100g)	Kunlik ehtiyoj, mg	Oddiy suli kunlik ehtiyojni qoplashi (100 g nisbatan)
1	Tiamin-B ₁	1,911	1.50	126%
2	Riboflovin-B ₂	0,164	1.8	8.9%
3	Piridoksin-B ₆	0,609	2.12	28.3%
4	Foliy kislota-B ₉	1,027	0.40	255%
5	Nikotin kislota-PP	0,081	15	0.5%
6	Askorbin kislotasi-C	0,062	90.54	0.06%

Mahalliy Oddiy suli (A.sativa L.) donida 1,91 B₁, 1,027 B₉, 0,608 B₆ (mg/100g) vitaminlari miqdori aniqlandi. Ichak yallig'lanishi kasalliklarida B guruh vitaminlari yetakchi klinik va laboratoriya sindromi hisoblangan ichak disbiyozi rivojlanishida ijobiy samara berishi isbotlangan.

Suli doni, bug'doy, makkajo'xori, arpa kepagi namunalarining 3 xil ekstraktida antioksidant faolligi adrenalinni autooksidlanishini ingibirlashi asosidagi spektrofotometrik usulda aniqlandi. Optik zichligi (birligi hv) (D) diagrammasi olindi va AF% natijalari hisoblab topildi va 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval.

Suli doni, bug'doy, makkajo'xori, arpa kepagining AF (%) qiymati.

Namuna / Vaqt s.	Suli doni S.D.	Makkajo'xori kepagi M.K.	Arpa kepagi A.K.	Bug'doy kepagi B.K.
75% spirtidagi ekstraktlarning AF% (a)				
0	21,74	26,09	32,61	23,91
60	27,61	20,9	23,88	37,31
300	32,18	27,23	34,65	26,23
420	31,77	24,09	28,78	23,67
600	25,88	17,9	21,79	18,09
O'rtacha qiymati	30,11	25,09	28,76	26,97
96% spirtidagi ekstraktlarning AF% (b)				
Namuna / Vaqt s.	S.D.	M.K.	A.K.	B.K.
0	33,33	25,49	21,57	21,57
60	24,82	24,82	24,82	22,7
300	20,91	12,59	21,41	19,9
420	14,78	10,43	14,78	16,09
600	9,48	9,88	10,67	13,44
O'rtacha qiymati	19,95	16,05	19,28	19,88
suvdagi ekstraktlarning AF% (d)				
Namuna / Vaqt s.	S.D.	M.K.	A.K.	B.K.
0	21,57	25,49	19,61	25,94
60	22,7	25,53	26,24	24,82
300	19,9	15,36	10,07	12,59
420	15,43	11,96	7,17	10,43
600	12,25	9,88	0,99	9,88
O'rtacha qiymati	18,22	16,73	12,87	16,05

3-jadval asosida, O‘zbekistonda yetishtirilgan Oddiy suli donining 75% spirtidagi ekstrakti AF qiymati qolgan namunalarga nisbatan yuqori-30.11% tashkil qilib, adabiyotlarda keltirilgan namunalarga nisbatan qariyb 1,48 barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Natijada Oddiy suli doni, arpa, bug‘doy, makkajo‘xori kepagi ekstraktlari asosida oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq deb topildi.

Andijon viloyatida yetishtiriladigan Oddiy suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagining turli nisbatlardagi quruq ekstraktlari tayyorlandi va AF ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (4-jadval).

4-jadval.

Suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagining turli nisbatdagi aralashma namunalari.

Namuna turi	Suli doni SD	Makka kepagi MK	Arpa kepagi AK	Bug‘doy kepagi BK	Umumiy foiz
T1	50%		50%		100%
T2		50%		50%	100%
T3			50%	50%	100%
T4	50%	50%			100%
T5	50%			50%	100%
T6	25%	25%	25%	25%	100%

5-jadval.


Suli doni, bug‘doy, makkajo‘xori, arpa kepagi aralashmalarining AF (%).

Namuna / Vaqt, s	S.D.:A.K. (1:1) T1	B.K.:M.K (1:1) T2	A.K.:B.K. (1:1) T3	S.D.:M.K. (1:1) T4	S.D.:B.K. (1:1) T5	S.D.:B.K.:A.K.:M.K (1:1:1:1) T6
75% spirtidagi ekstraktlarning AF%						
0	45,10	37,26	25,49	29,41	27,45	33,33
60	37,59	37,59	31,92	31,21	25,53	30,50
300	46,56	44,84	26,7	35,01	23,17	30,48
540	42,02	38,59	18,79	26,06	16,97	28,08
600	39,53	38,34	18,58	23,32	16,6	28,46
O‘rtacha qiy.	43,14	41,17	28,76	31,63	22,35	30,15
96% spirtidagi ekstraktlarning AF%						
0	29,41	23,53	21,57	39,22	25,49	27,45
60	32,62	23,40	24,82	27,66	25,53	25,53
300	38,04	36,52	21,41	30,73	15,37	24,18
540	34,14	32,53	12,12	23,64	10,30	24,18
600	34,39	30,63	10,67	20,55	9,89	23,48
O‘rtacha qiy.	35,04	31,07	19,29	28,74	16,73	24,36
Suvdagi ekstraktlarning AF%						
0	21,57	25,49	21,57	33,33	25,49	25,49
60	22,70	24,82	24,82	24,82	25,53	24,88
300	19,90	12,59	21,41	20,91	15,37	12,59
540	14,14	9,99	12,12	11,11	10,30	9,90
600	13,44	9,88	10,67	9,49	9,88	9,88
O‘rtacha qiy.	19,57	16,05	19,29	19,95	16,73	16,05


Tayyorlangan T1, T2, T3, T4, T5 va T6 aralashmalarining spektrofotometrik usulda AF aniqlash tahlillari 3 marta 75% va 96% spirtidagi, suvdagi ekstraktlarida

o‘tkizildi hamda AF% boshlang‘ich va 600 soniya oralig‘ida olingan natijalari asosida AF o‘rtacha qiymati hisoblab topildi va 5-jadvalda aniq qiymatlari keltrildi. Natijada ma‘lum bo‘ldiki, tahlil qilinayotgan namunalar yuqori AF % qiymatlari 75% spirdagi ekstrakti ekanligi va mos ravishda T1 43%, T2 41%, T3-28.7%, T4-31.6%, T5-22.3% va T6-30.1%ni tashkil qilishi aniqlandi.

Natijalar asosida Oddiy suli doni:arpa kepagi 1:1 (T1) aralashma AF% adabiyotlarda keltirilgan namunalarga nisbatan 1,3 barobar va bug‘doy kepagi:makkajo‘xori kepagi 1:1 (T2) aralashma AF% 1,2 barobar yuqori hamda T1 namuna asosida “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi, T2 namuna asosida bioparchalanuvchan “EKOIDISH” tayyorlash maqsadga muvofiq deb topildi.



3.a-rasm. “ASMADON” tarkibidagi vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.



3.b-rasm. “ASMADON” tarkibidagi vitamin C miqdorini aniqlash xromatogrammasi.

6-jadval.

“ASMADON” ekstraktidagi suvda eruvchi vitaminlarning miqdori, ushlanish vaqtlari va kundalik ehtiyojni qoplash qiymati.


Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg	Kunlik ehtiyoj, mg	“ASMADON” kunlik ehtiyojni qoplashi (5 g OOQ uchun)
B ₁	2,96	2,64	6,61	1.50	22.04%
B ₃	5,75	4,25	10,63	13	4.1%
PP	7,58	0,16	0,41	15	0.14%
B ₉	16,58	1,54	3,86	0.40	48.16%
B ₂	18,91	0,32	0,80	1.8	1.93%
B ₆	5,78	1,03	2,58	2.12	1%
C	4,44	0,11	0,28	90.54	0.01%

Yangi olingan “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida aniqlandi va namuna ekstrakti 0,1 N


li HCl dagi xromatogrammasi olindi (3.a-, 3.b-rasmlar) hamda vitaminlar miqdorining aniq qiymatlari hisoblab topildi (6- jadval).

“ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi 100 g tarkibida suvda eruvchi vitaminlardan B₁ 6,61 mg, B₂ 0,80mg, B₃ 10,63mg, B₆ 2.58 mg, B₉ 0,27 mg, C 0.28 mg va PP vitamin 0.41 mg bo‘lib, Suli doni va arpa kepagi asosida olingan “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasining 1 kunlik qabuli (5 g) orqali B₉ vitaminiga bo‘lgan kunlik ehtiyojni qariyb 49% ga, B₁ vitaminiga bo‘lgan ehtiyojni qariyb 22% ga qoplash i yo‘g‘on ichak kolitini oldini olish va davolashda samarali hamda vitaminlarga boy vosita sifatida qo‘llash mumkin degan xulosaga kelindi.

“ASMADON” va “EKOIDISH” ekstrakti (1g) tarkibidagi flavonoidlar miqdori YuSSX usulida 300 nm dagi xromatogrammasi olindi (4.a va 4.b-rasmlar)



4.a-rasm. “ASMADON” ekstrakti tarkibidagi fenol birikmalarni aniqlash xromatogrammasi.



4.b-rasm. “EKOIDISH” ekstrakti tarkibidagi fenol birikmalarni aniqlash xromatogrammasi.

“ASMADON” va “EKOIDISH” ekstrakti tarkibida fenol birikmalarni aniqlash xromatogrammasi orqali namunalarda rutin, salitsil kislotasi, kversetin, apigenin kabi polifenol birikmalarni tutushi aniqlandi (7- jadval).

7-jadval.

“ASMADON” va “EKOIDISH” ekstraktidagi fenol birikmalarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Fenol birikma nomi	Ushlanish vaqti, sek		Konsentratsiya, mg/l		100 g namunadagi miqdor, mg	
	“ASMADON”	“EKOIDISH”	“ASMADON”	“EKOIDISH”	“ASMADON”	“EKOIDISH”
Rutin	19,09	19,37	0,15	0,09	0,39	0,21
Salitsil kislotasi	22,67	22,40	0,79	0,64	1,99	1,59
Kversetin	24,43	24,44	0,93	0,02	2,32	0,06
Apigenin	26,78	-	0,56	-	1,40	-

“ASMADON” tarkibida 2.32 mg kversetin va 1.99 mg salitsil kislotasi falavonoidlar qiymati aniqlanib, analgetik va antipiretik kabi yon ta’siri sababli

yoʻgʻon ichak kolitida kuzatiladigan spazmatik ogʻriqlarda ijobiy samara beradi degan xulosaga kelindi.

Yangi olingan “ASMADON” va “EKOIDISH” element analizi IBP-OES usulida oʻtkizildi va 60 dan ortiq makro- va mikroelementlar miqdori aniqlandi (8-jadval).

8-jadval.

“ASMADON” va “EKOIDISH” tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori (mg/100g).

Makroelementlar							
№	Nomi	“ASMADON”	“EKOIDISH”	№	Nomi	“ASMADON”	“EKOIDISH”
1	K	1742,7	447,1	4	Mg	164,6	155,9
2	P	318,6	481,2	5	Ca	131,9	49,7
3	Na	202,6	154,8	6	Fe	12,16	7,25
Mikroelementlar							
№	Nomi	“ASMADON”	“EKOIDISH”	№	Nomi	“ASMADON”	“EKOIDISH”
1	Ag	0,009	0,005	10	Mn	1,99	3,25
2	Al	4,592	0,47	11	Mo	0,066	54,8
3	Au	0,032	0,12	12	Ni	0,16	0,3
4	B	1,48	0,25	13	Se	0,034	0,07
5	P	318,6	481,2	14	Sr	6,764	0,5
6	Cr	0,281	0,42	15	Te	0,6	0,2
7	Cs	5,083	-	16	Th	0,136	0,17
8	Cu	0,764	0,39	17	Zn	2,556	4,1
9	Li	0,18	0,27	18	Si	3,15	1,97

Yuqoridagi 8-jadval asosida, “ASMADON” tarkibida 1742 mkg/g K, 318 mkg/g P, 164 mkg/g Mg va 50 mkg/g Ca 12,16 mkg/g Fe va 202,6 mkg/g Na kabi elementlar miqdorini, “EKOIDISH” tarkibida 447,1mkg/g K, 131,9 mkg/g Ca, 155,9 mkg/g Mg, 7,25 mkg/g Fe, 481,2 mkg/g P va 154,8 mkg/g Na saqlashi aniqlandi hamda ogʻir metallar miqdori DF talablari meʼyorida oshmasligi isbotlandi. “ASMADON” tarkibidagi K elementi tanada hujayra ichida osmos va kislota-ishqor muvozanatini taʼminlab, metabolitik yoʻllarda glyukoza bilan bogʻliq ferment almashinuvi faollashtiradi, Ca elementi ikkilamchi safro va ionlangan yogʻ kislotalarini bogʻlash orqali, yoʻgʻon ichak epiteliysining koʻpayishini ragʻbatlantiruvchi bir va ikki valentli kationlar sifatida yoʻgʻon ichak kolitini davolashda shifobaxsh vosita sifatida qoʻllash mumkin degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot davomida “ASMADON” va “EKOIDISH” namunalarning 50 mkl dan 600 mkl gacha spirdagi ekstraktleri barqaror erkin radikal DFP (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil)ga nisbatan spektrofotometrik usulda ARF aniqlandi (9-jadval).

“ASMADON” 500 mkl konsentratsiya ARF qiymati qolgan namunalarga nisbatan yuqori qiymatni 49,7% tashkil qilib, tanada hosil boʻluvchi erkin radikallarni bloklash orqali yalligʻlanish kasalliklarini oldini olish va davolashda qoʻllash mumkin degan xulosaga kelindi.

9-jadval.

“ASMADON” va “EKOIDISH” namunalarning spirtli eritmadagi ARF % qiymati.

Namuna (spirtidagi ekstrakti)	Ingibirlash, % (10 daqiqa holatiga)						
	50 mkl/ml	100 mkl/ml	200 mkl/ml	300 mkl/ml	400 mkl/ml	500 mkl/ml	600 mkl/ml
“ASMADON”	18,1±1,2	27,3±1,7	39,1±1,8	41,4±1,6	45,8±1,9	49,7±2,1	49,6±1,6
“EKOIDISH”	17,5±1,7	21,2±1,9	29,8±1,8	31,1±1,5	39,2±2,1	45,1±2,1	45,0±1,5

“ASMADON” ichak yallig‘lanishini bartaraf etishda *in vivo* sharoitida faol fermentlarga ta’siri, eksperimental zotsiz kalamushlarda 30 kun davomida olib borilib, boshlang‘ich va “ASMADON” berilgan holat solishtirish IFA usuli natijalari tahlili orqali isbotlandi (10-jadval).

10-jadval.

Eksperemental ichak yallig‘lanishida “ASMADON” ekstraktining ayrim fermentlar faolligiga ta’siri.

Takroriyliigi	Nazorat	Ksilol	Ksilol + “ASMADON”
MDA miqdoriga ta’siri (mmol/ml) (n=3)			
1	2,98	3,82	3,67
2	2,73	3,42	3,31
3	2,62	3,69	3,10
O‘rtacha qiymati	2,77±0,015	3,64±0,038*	3,36±0,142**
Oqsil miqdoriga ta’siri (mg/dl) (n=3)			
1	18,68	23,41	29,07
2	12,97	26,94	21,94
3	19,21	23,94	34,65
O‘rtacha qiymati	16,95±4,41	24,66±2,12	28,55±1,30**
Katalaza fermenti faolligiga ta’siri (μKat/mg oqsil) (n=3)			
1	32,12	27,85	33,11
2	35,23	20,11	36,26
3	28,41	19,74	29,78
O‘rtacha qiymati	31,92±0,84	22,56±0,05**	33,05±0,02*
Xolinesteraza fermenti faolligiga ta’siri (ed/l) (n=3)			
1	1509	4691	3680
2	1418	5230	4516
3	1382	5618	4329
O‘rtacha qiymati	1436,33±65,45	5179,66±95,02*	4175±89,56**
Lipaza fermenti faolligiga ta’siri (ed/l) (n=3)			
1	102	189	129
2	135	166	144
3	126	132	132
O‘rtacha qiymati	121±17,05	162,33±28,67*	135±7,93**

Jadvaldagi natijalar uchun izoh: (*p<0,05, **p<0,01, ***p<0,001 n=3)

Jadval asosida *in vivo* sharoitida tahlil olib borilgan kalamushlar qonining IFA tahlillari “ASMADON” qabulidan keyingi qon zardobidagi oqsil konsentratsiyasi 28.55 mg/dl standartga nisbatan 1.7 barobar, ksilolga nisbatan 1.2 barobar, MDA miqdori 3,36 mmol/ml standartga nisbatan 1.2 barobar yuqori

qiymatga ega ekanligini isbotlandi. Lipaza **135** ed/l, xolistrenaza **4175** ed/l va katalaza **33,05** μ Kat/mg miqdori standartga nisbatan mos ravishda 1.1, 2.9 va 1.03 barobar yuqori, katalaza fermenti faolligi yallig'lanish chaqiruvchi ksilolga nisbatan 1.5 barobar yuqori ekanligi isbotlandi. Natijada "ASMADON" ichak mikroflorasida **MDA** va **oqsil sintezini** faollashtirib, **katalaza, lipaza va xolisterenaza** fermenti sintezi 3 barobargacha ortishi, yallig'lanish chaqiruvchi **ksilolni** qaytarish xossasini namoyon qilishi va ichak yallig'lanishi, kolit kassaligini davolash va oldini olishda ijobiy samara berishi isbotlandi.

Dissertatsiyaning "**Suli doni, arpa, bug'doy, makkajo'xori kepagi asosida yangi tovarlar olish va ularni kimyoviy tarkibi asosida sinflash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida "ASMADON" oziq-ovqat qo'shilmasini ichak yallig'lanishi, yog'on ichakning surunkali kolit bezovta qilayotgan, Andijon viloyati Jalaquduq tumani "Oltin vodiy tabiati" sihatgohi 20 nafar bemorlarida 1-sentabrdan 1-dekabrgacha bo'lgan muddat oralig'ida klinik sinovlari o'tkazildi. Ushbu muddat davomida 20 nafar bemordan 16 nafarida (80%) kasallik ijobiy bartaraf etildi deb xulosa qilindi. Keyingi klinik tadqiqotlar Andijon tumani "Uzmedical" davolash maskanida surunkali kolitdan sintetik (Sulfasalazin-N) va tabiiy (Senadeksin) dori vositalari 10 nafar hamda "ASMADON" oziq-ovqat qo'shilmasi bilan davolanayotgan 10 nafar bemorlarda amalga oshirildi (11-jadval).

11-jadval.

"ASMADON" oziq-ovqat qo'shilmasining "UZMEDICAL" davolash maskanida o'tkazilgan klinik sinovlari natijalari.

Preparat nomi	Bemor soni	3-Kun (%)	5-Kun (%)	7-Kun (%)	10-Kun (%)	12-Kun (%)	15-Kun (%)	20-Kun (%)
"ASMADON" OOQ	10	50	70	90	100	-	-	-
Sulfasalazin-N, Senadeksin tab.	10	30	50	60	70	80	90	100

"ASMADON" (7000 so'm) oziq-ovqat qo'shilmasi bilan davolanagan bemorlarning barchasida davolanishning 10-kunida, an'anviy qo'llanilayotgan klinik sintetik "Sulfasalazin-N" (102000 so'm) hamda tabiiy "Senadeksin" (3000 so'm) tabletkalari yordamida davolanishning 20-kunida ichaklar faoliyatining normallashishi kuzatildi hamda ikki barobar qisqa muddatda ijobiy samara kuzatildi (12-jadval).

12-jadval.

"ASMADON" oziq-ovqat qo'shilmasining iqtisodiy samaradorligi.

Dori nomi va Ishlab chiqaruvchi mamlakati	Dori turi va shakli	Miqdori	Narxi	Davolanish kursi uchun umumiy sarf	Davolanish kursida tejab qolinadi
Sulfasalazin N, Sloveniya	Sintetik tabletka	50 dona	102000 so'm	108000 so'm	87000 so'm
Senadeksin, Ukraina	Tabiiy tabletka	20 dona	6000 so'm		
"ASMADON", O'zbekiston	Tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi	50 gr	7000 so'm	21000 so'm	10 nafar bemor uchun- 870000 so'm

O'tkazilgan klinik sinovlar natijasida surunkali kolitni "ASMADON" oziq-ovqat qo'shilmasini qo'llash orqali davolashda, sintetik dori vositalari bilan davolashga nisbatan umumiy davolanish kursida davolanuvchi 1 bemor uchun 87 ming so'm, 10 ta bemorga nisbatan 870 ming so'mgacha iqtisodiy samara berishi isbotlandi, shifo maskanlari bilan rasmiy dalolatnomalar tuzildi.

Bug'doy va makkajo'xori kepagi asosida "EKOIDISH" texnik va fizik tajribalari Andijon davlat universiteti qoshidagi "Tovarlar kimyosi va xalq tabobati ilmiy tadqiqotlar markazi"da o'tkazildi. Buning uchun (LN1)- BK90%:MK10%; (LN2)- BK80%:MK20%; (LN3)- BK70%:MK30%; (LN4)- BK60%:MK40%; (LN5)- BK50%:MK50% aralashmalari asosida "EKOIDISH" (d=20sm likopchalar) tayyorlash uchun jihozlar (gidravlik press, ikki tomonlama qoliplash uskunasi) va sharoitlar (t-80 -110°C, bosim, qoliplash) asosida texnologik sxema tayyorlandi. Mexanik mustaxkamlik (yuklama og'irligi 1kg kuch= 1 N\ idish yuzasi m²=S), temperatura (turli haroratga) o'zgarishiga (GOST 9147-80) va suvga chidamlilik, tabiiy materiallar bir tomonlama suvda bo'kish (GOST 12605-97 Kobb metodi) hisoblab topildi (13-jadval).

13-jadval.

Bioparchalanuvchan "EKOIDISH" namunalarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari.

Namuna turi	Ko'rsatkich nomi				
	Mustahkamlik (N/m ²)		Suvga chidamlilik %\min		Xaroratga chidamlilik C ⁰ \min
	1 kg yuk (1N)	2kg yuk (2N)	30 daq. Davomida	60 daq. davomida	
LN 1	312,31 barqaror	624,627 sinish kuzatildi	30%	35%	140-150 ⁰ C
LN 2	312,31 barqaror	624,627 sinish kuzatildi	25%	30%	130 ⁰ C
LN 3	312,31 barqaror	624,627 darz ketish	25%	30%	110-120 ⁰ C
LN 4	312,31 barqaror	624,627 markazda darz ketish kuzatildi	15%	20%	100 ⁰ C
LN 5	312,31 barqaror	624,627 barqaror	5%	10%	90-100 ⁰ C

Tayyorlangan idishlar presslash jarayoni va haroratga chidamlilik kabi texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, eng barqaror namuna sifatida LN5 namunasi tanlab olindi. Natijada arzon "EKOIDISH" (1300 so'm) tayyorlandi va chet elda (Polsha) ishlab chiqarilgan "BIOTREM" (bug'doy kepagi asosida, 3100 so'm) namunaning sifat va narx ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirildi (14-jadval).

14-jadval.

O'zbekistonda va Polshada ishlab chiqarilgan bioparchalanuvchan idishlarining ayrim ko'rsatkichlari tahlillari.

Ko'rsatkichlari	"EKOIDISH" O'zbekiston	"BIOTREM" Polsha
Xomashyosi	Bug'doy va makkajo'xori kepagi	Bug'doy kepagi
Qalinligi	4- 4,2 mm	4,2- 5 mm
Rangi	Och qo'ng'ir	qo'ng'ir
Narxi	1300 so'm	3100 so'm
Iqtisodiy samara	1900 so'm	

Jadval asosida taklif qilinayotgan “EKOIDISH” namunasi import qilinayotgan 1 dona tovarga nisbatan tashqi, texnik, iqtisodiy (1900 so‘m) ustuvor, 100 donalik tovarga nisbatan 190000 so‘m iqtisodiy samara berishi isbotlandi. “EKOIDISH” ishlab chiqarish texnologiyasi yoritilgan elektron dastur tayyorlandi va O‘zRAV (№ DGU 42750) guvohnomasi olindi.

Mahalliy suli doni va arpa kepagi asosida ichak yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega “ASMADON” “Kletchatka, vitaminlarga boy arpa va suli kepagi asosida tayyorlangan, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun - 1212 99 960 1 kod raqami tavsiya etildi. Bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida “EKOIDISH” “Kletchatkaga boy, o‘simliklar asosida tayyorlangan tabiiy bioparchalanuvchan buyumlar” uchun – 1404 90 000 2 kod raqami tavsiya etildi (15-jadval).

15-jadval.

“ASMADON” va “EKOIDISH” uchun amaldagi va tavsiya qilingan kod raqamlari.

TIFTN kodi	Tovar nomi	Qo‘shimcha o‘lchov birligi
12-guruh	Yog‘li urug‘lar va mevalar; boshqa urug‘lar, mevalarva donlar; dorivor o‘simliklar va o‘simliklar	-
1212 99 950 9	Boshqalar.	-
1212 99 960 1	Kletchatka, vitaminlarga boy arpa va suli kepagi asosida tayyorlangan, tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas	-
14-guruh	To‘qima buyumlar tayyorlash uchun o‘simlik materiallari	-
1404 90 000 1	Shishiruvchi va yengil to‘ldiruvchi sifatida ishlatiladigan o‘simlik metriallari (masalan o‘simlik tolalari), taglik va tagliksiz holatda asosan cho‘tka va supurgi sifatida (masalan jo‘xori, piassava, pirey)	-
1404 90 000 2	Kletchatkaga boy, o‘simliklar asosida tayyorlangan tabiiy bioparchalanuvchan buyumlar	-

Mazkur kod raqamlari Tovarlarini tasniflash va kodlashning UT 2- va 3-qoidalari asosida joriy etildi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining (18.10.2024-y. №17/05-24-0004-son) ma‘lumotnomasi asosida bojxona amaliyotiga joriy etish uchun taklif sifatida qabul qilindi.

Ushbu dissertatsiya ishini shakllantirishda qimmatli maslahatlar va amaliy yordam bergani uchun kimyo fanlari doktori, dotsent Mo‘minjonov Mirjalol Muqimjon o‘g‘liga chuqur minnatdorlik bildiraman.

XULOSALAR

Oddiy suli (A.sativa L.) doni, arpa, bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmasi va ekologik toza idishlarning biologik faolligi, shifobaxsh va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, amaliyotga joriy qilish, kimyoviy tarkibi asosida sinflash bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Yurtimizda donli o‘simliklar va ikkilamchi qismlari asosida ichak yallig‘lanishini oldini olish va davolash xususiyatiga ega shifobaxsh oziq-ovqat

qo‘shilmasi hamda ekologik toza bir martalik idishlar ishlab chiqilmagan;

2. Mahalliy suli doni va arpa kepagi asosida ichak yallig‘lanishini oldini olish va davolash xususiyatiga ega “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi hamda bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida bioparchalanuvchan bir martalik “EKOIDISH” ishlab chiqilgan, *in vitro* sharoitida “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasining 43% antioksidant va 49% antiradikal faollikka ega ekanligi spektrofotometriya usulida aniqlandi;

3. “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi 36 ta makro- va mikroelementlar miqdori IBPOES usulida aniqlanib, ular orasida P, K, Mg, Na, Ca, Mo, Fe, Mn, Zn, Si kabi hayotiy zarur elementlarning miqdori boshqalarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlandi;

4. “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida suvda eruvchi vitaminlarni $B_3 > B_1 > B_9 > B_6 > B_2 > PP > C$ kamayib borish qiymatida, fenol birikmalardan yallig‘lanishni bartaraf etuvchi salitsil kislotasi 2 mg, analgetik va antipiritik hisoblangan kversetin 2,4 mg, apegenin 1,4 mg va rutin 0,4 mg saqlashi YuSSX usulida aniqlandi;

5. “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi ichak yalig‘lanishini chaqiruvchi ksilolni qaytara olish xossasini namoyon qilishi, katalaza, lipaza va xolisterenaza fermentlarining yuqori katalitik faolligi esa biologik oksidlash jarayonlarini ingibirlashi IFA usuli orqali isbotlandi;

6. Suli doni va Arpa kepagi asosida “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasini “Oltin Vodiy Tabiati MCHJ” da ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma (TY 303271760-09:2024) tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik Va Jamoat Salomatligi Qo‘mitasining (№26-11b-1101/25.12.2024) ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining (№020299/20.01.2025) xulosasi olindi;

7. “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun- 1212 99 960 1 va bug‘doy va makkajo‘xori kepagi asosida “EKOIDISH” bioparchalanuvchan buyumlar uchun – 1404 90 000 2 kod raqamlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining (№17/05-24-0004/18.10.2024) ma’lumotnomasi asosida bojxona amaliyotiga joriy etish uchun tavsiya etildi;

8. “ASMADON” oziq-ovqat qo‘shilmasini qo‘llash orqali surunkali kolitni davolashda 10 ta bemorga nisbatan 870 ming so‘m va “EKOIDISH” namunasi import qilinayotgan 100 donalik tovarga nisbatan 190 ming so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАМДАМОВА МАДИНАБОНУ ДИЛМУРОД КИЗИ

**ПОЛУЧЕНИЕ НОВЫХ ТОВАРОВ ДЛЯ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ НА
ОСНОВЕ ОВСА И ОТХОДОВ НЕКОТОРЫХ ЗЕРНОВЫХ РАСТЕНИЙ**

**02.00.09 - Химия товаров
14.00.41- Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.2.PhD/K887.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Андижанского государственного университета (www.adu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научные руководители: Аскарлов Иброхим Рахмонович
доктор химических наук, профессор
Киргизов Шахобиддин Мирзараимович,
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Абдуллаев Шавкат Вахидович
доктор химических наук, профессор
Исмоилов Муминжон Юсупович
доктор химических наук, доцент

Ведущая организация: Кокандский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета под номером DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 в Андижанском государственном университете «20» 08 2025 года в 10⁰⁰ часов. (Адрес: 170100, г. Андижан, Университетская ул., 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирован под номером № _____). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, e-mail: agsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации розослан « 11 » 08 2025 года.
(Протокол реестра рассылки № 57 от « 11 » 08 2025 года.)



[Signature]
Ш.Х.Абдуллоев
Заместитель председателя Научного
совета по присуждению ученых степеней,
д.х.н., профессор
М.М.Муминжанов
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., доцент
М.М.Хожиматов
Председатель научного семинара Научного
совета по присуждению ученых степеней
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD)).

Актуальность и необходимость темы диссертации. Определение химического состава злаковых растений и их вторичных частей, а также разработка на их основе безвредных натуральных пищевых и непищевых продуктов, полезных для организма человека, являются одной из важных и актуальных проблем в мире. В связи с этим особое значение приобретает разработка безвредных и экологически чистых продуктов на основе природного сырья, пищевых добавок, содержащих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, являющихся вспомогательными к синтетическим лекарственным препаратам и применяемых в народном хозяйстве и медицине.

В связи с вредными побочными эффектами синтетических лекарственных препаратов для лечения и профилактики кишечных воспалений, в частности колита, в мире все больше внимания уделяется разработке натуральных, иммуностимулирующих биологически активных добавок к пище на основе растений, способных заменить некоторые синтетические лекарственные препараты. В связи с тем, что использование пластиковых непищевых и промышленных изделий приводит к различным заболеваниям среди населения и экологическим проблемам, особое внимание уделяется научным исследованиям по разработке новых видов экологически чистой одноразовой тары. Поэтому разработка натуральной, экологически чистой, биоразлагаемой, безвредной одноразовой тары, заменяющей пластиковые изделия, на основе определения химического состава вторичных частей злаковых растений и их классификации по химическому составу имеет большое научное и практическое значение.

В нашей республике достигнуты определенные результаты в разработке экологически чистой тары на основе натуральных пищевых добавок и природных полимерных материалов, обладающих свойствами профилактики и лечения воспалительных заболеваний кишечника, в частности колита, на основе местных злаковых растений и их вторичных частей. В Стратегии развития Нового Узбекистана обозначены важные задачи для реализации в рамках «Реализации Программы развития пищевой промышленности, дальнейшего укрепления продовольственной безопасности страны и расширения производства экологически чистой продукции». Исходя из этих задач, разработка натуральных пищевых добавок и экологически чистых биоразлагаемых контейнеров на основе зерна пшеницы, кукурузы, ячменных отрубей и овса, профилактика и лечение воспалительных заболеваний кишечника, колитов, укрепление иммунитета организма, а также изучение их химического состава, структуры и свойств, а также разработка и внедрение для них новых международных товарных кодов в рамках ТН ВЭД имеют важное научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени

послужит реализации Указа Президента Республики Узбекистан² от 23 октября 2019 года № УП-5853 «О Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», «О координации научно-исследовательской деятельности всех видов государственных научных и высших учебных заведений в сфере сельского хозяйства», а также Указа № УП-4668 «О дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» и Постановления № УП-3968 от 12 октября 2018 года «О мерах по регулированию сферы народной медицины в Республике Узбекистан».

Соответствие научных исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Настоящие исследования выполнены в соответствии с VII приоритетным направлением развития науки и технологий республики: «Химические технологии и нанотехнологии».

